



TOG‘-KON SANOATI, GEOLOGIYA VA MINERAL
RESURSLAR SOHALARIDA KASBIY
MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

**FOYDALI QAZILMALARNI YER OSTI
USULIDA QAZIB OLISH**



“Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrda Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrda 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Tog‘-kon sanoati, geologiya va mineral resurslar sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0029



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu kasbiy standart "Lampachi", "Shaxtaga mahkamlovchi materiallarni yetkazuvchi", "Mustahkamlovchi", "O'tuvchi (proxodchik)" va "Stvolchi (yerosti)", kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

anker — konchilikda yer osti qazilmalarini mustahkamlash uchun tosh devor yoki tomga o'rnatilgan maxsus metall sterjen.

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

brevno — (g'o'la) bu yog'och (daraxt)ni aylanasini qirqib yoki yumaloq shaklda tayyorlangan qalin bo'lagi bo'lib odatda uzunligi katta, diametri yirik (10–50 sm) bo'ladi. Qurilishda, konlarda mustahkamlash ishlarida (krep qo'yishda) ko'p ishlatiladi.

brus — daraxtdan to'rtburchak (to'g'ri to'rtburchak) shaklda qirqib tayyorlangan yo'g'on yog'och bo'lib kesimi odatda 100×100 mm, 150×150 mm va undan kattaroq bo'ladi. Shaxta mustahkamlashda ishlarida devor, ustun va tayanch sifatida ishlatiladi.

burg'ilanuvchanlik – tog' jinlarini burg'ilab buzishga ko'rsatadigan qarshiligi, sinovchi standart sharoitdagi sof burg'ilash tezligi bilan xarakterlanadi.

burg'ilash-portlatish ishlari – burg'ilash va portlatish ishlarida bajariladigan texnologik operatsiyalar yig'indisi.

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

Doska – konchilik va qurilish ishlarida qoplash, mustahkamlash va yotoq sifatida ishlatiladigan tekis yog'och material.

foydali qazilma koni — yer ostida foydali minerallarni va birikmalarni tabiiy to'plangan yoy

gezenka – bu yer osti qazish ishlarida yordamchi kon-kapalari (gornaya virabotka) turi bo'lib, ma'lum yo'nalishda pastga yoki yuqoriga qarab qiya qilib qazilgan tuproq yoki ruda yo'li.

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kanat – Shaxtada yuk va odamlarni ko'tarish uchun klet yoki skipni tortib chiqaradigan kuchli tros (metall arqon).

karstlar – yer ostidagi suvlar ta'sirida eriydigan tosh jinslari (asosan ohaktosh, dolomit, gips) eriydi va natijada katta bo'shliqlar, g'orlar, chuqurliklar hosil bo'ladi.

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

klet – Shaxta stvoli orqali odamlar va turli yuklarni (asbob-uskunalar va material) ko'tarib-tushirish uchun mo'ljallangan maxsus metall konstruksiya (lift kabi).

kon massasi – rudadan alohida ajratilgan ruda massasi va keraksiz jinslar jamlanmasi

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

konni ochish – yer yuzasidan ochuvchi kapital kon lahimlarini ruda tanasining hammasiga yoki uning bir qismiga o'tkazib, tayyorlovchi lahimlar o'tish

lebyodka (chig'ir)– Yuk va odamlarni ko'tarish-tushirishda ishlatiladigan mexanik qurilma.

lom – bu qazish, buzish va og'ir buyumlarni ko'tarishda ishlatiladigan, metallardan yasalgan qattiq va uzun cho'p (prut, tayoq).

lyuk – yer osti kommunikatsiyalari va inshootlariga kirish uchun qopqoq bilan yopiluvchi maxsus teshikdir.

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

oraliq ramalar – Shaxta va shtolnya qazilmalarini mustahkamlashda qo‘yiladigan asosiy ramalar orasiga joylashtiriladigan qo‘shimcha ramalar.

peremichka — shaxta yo‘llarida havo oqimini boshqarish va xavfsizlikni ta‘minlash uchun quriladigan to‘siq yoki devor.

Plastina – bosimni maydonga taqsimlash va mustahkamlovchi qurilmalarni mahkamlash uchun ishlatiladigan tekis metall detal.

plivunlar – yer ostida suv bilan to‘yingan, mayda donali qum yoki loy massasi bo‘lib, bosim ta‘sirida harakatchan holatga keladi.

podnoslar – Konchilikda odatda chang, suv, ruda yoki kabel va quvurlarni tashish/qo‘yish uchun ishlatiladigan yordamchi qurilma yoki taglik.

portlovchi materiallar – deb portlovchi moddalar va portlatish vositalari hamda oraliq detonatorlar to‘plamiga aytiladi.

qavat balandligi — u qazib olinayotgan asosiy gorizont bilan yuqorigi qavat oralig‘ini tik yuzaga tushgan proyeksiyalari oralig‘idagi masofa bilan o‘lchanadi

rastrella – Bu tayanch konstruksiya elementlarini bir-biriga bog‘laydigan yordamchi ustun yoki qiya qo‘yiladigan tayanch.

reyka — nisbatan ingichka va tor yog‘och bo‘lak. Odatda 20×40 mm, 30×50 mm kabi o‘lchamlarda tayyorlanadi. Yordamchi element sifatida shaxta mustahkamlash ishlarida ishlatiladi.

ruda massasi – aralash jinslar bilan yuzaga chiqadigan ruda

rudasiz (puch) jinslar — tarkibida metall (foydali mineral) bo‘lmagan, qayta ishlash uchun yaroqsiz jinslar

rudnik — maxsus hujjat bilan ajratilgan yer usti va yer osti maydoni bo‘lib u joydagi konni ishlatuvchi konchilik korxonasi tarkibida bitta yoki bir necha ishlab chiqarish birligi (shaxtalar, shtolnyalar, karyerlar va yordamchi — xizmat ko‘rsatuvchi), sexlardan iborat konchilik korxonasi. Rudnik korxonasi sifatida yagona ma‘muriy-texnikaviy boshqarmaga ega.

shaxsiy himoya vositalari (SHHV) — bu ishlab chiqarish jarayonida inson organizmiga ta‘sir qiluvchi xavfli va zararli omillarning ta‘sirini oldini olish yoki ularni minimal darajaga tushirish uchun ishchi tomonidan shaxsiy tarzda qo‘llaniladigan maxsus texnik vositalar, kiyimlar va qurilmalar majmuasidir.

shaxta — konchilik korxonasining mustaqil ishlab chiqarish birligi bo'lib, yer osti usulida foydali qazilmalarni, unga ajratilgan yer maydoni yoki uning bir qismida qazib olish ishlarini amalga oshish.

shpur – tog' jinslarida yoki betonda, g'ishtli devorlarda burg'ilovchi bolg'a yoki parmalar yordamida burg'ilab hosil qilingan silindrsimon, diametri 75 mm gacha va chuqurligi 5 m gacha bo'lgan sun'iy chuqurlik.

shtolnya – tog' yoki tepalik qismida, yer yuzasidan turib yon tomonga qazib kirilgan gorizontol yo'lakcha bo'lib, u asosan shaxtaga kirish, havo almashinishi (ventilyatsiya), suv chiqarish, rudani yoki boshqa foydali qazilmani tashib chiqish maqsadida qaziladi.

skip – Foydali qazilmalarni (ko'mir, ruda, tosh) shaxtadan yer yuziga chiqarish uchun ishlatiladigan katta metall idish.

skvajina – burg'ilash dastgohi yordamida hosil qilingan diametri 75 mm dan katta, chuqurligi 5 m dan ortiq bo'lgan sun'iy chuqurlik.

tamponaj – konchilik va burg'ulash ishlarida quduq devorlari va bo'shliqlarini mustahkamlash, suv va gaz kirib kelishini oldini olish uchun ularga sement, glina yoki turli maxsus mahsullarni yuborish jarayoni.

tirant – bu uzun metall yoki yog'och bog'lovchi tayanch, u ramalarni, ankerlarni yoki mustahkamlovchi elementlarni tarang holda ushlab turadi.

tog' jinslari massivi – tog' jinslarining ma'lum uchastkasidagi uning tabiiy holati. Massiv jinslarining portlatilish qiyinligi, buzilish darajasi va maydalanishni jadalligini asosan uning mahkamligi, qattiqligi, darzlanganligi, ochilgan yuzalar soniga bog'liq holda aniqlanadi.

tokchalar – Mustahkamlash yoki anker tizimida tayanch element sifatida xizmat qiladigan metall yoki yog'och qismlar.

vagonetka – bu yer osti kon ishlarida hamda karyerlarda qazib olingan ruda, tosh, ko'mir va boshqa yuklarni tashish uchun ishlatiladigan kichik (0,5–3 m³ hajmli) temir yo'l vagonchasi.

xavfsiz masofa – portlatish ishlari amalga oshirilayotganda kishilarning jarohatlanish va uskunalarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun loyiha yoki burg'ilash-portlatish ishlari pasportida maxsus usulda hisoblangan xavfsiz zona chegaralari ko'rsatiladi. Bu zonaning tashqarisida kishilar va qo'llanilayotgan uskuna qurilmalarning xavfsizligi ta'minlanadi.

yotoqlar – Shaxtada ramalarni qo'yish va ularning barqarorligini ta'minlash uchun yerga yotqiziladigan yog'och yoki beton tagliklar.

zarbli bolg'a — bu qattiq tosh va betonni maydalash va parchalash uchun ishlatiladigan pnevmatik, elektr yoki gidravlik bolg'a bo'lib u asosan shaxtada burg'ilash ishlarida qo'llaniladi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi O'RQ-410-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori, O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi "O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 290-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-oktabrdagi "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini hamda ushbu ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 637-son qarori;

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025), O'zMSt 641:2025;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT — Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

t/r – tartib raqami;

ShHV- shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Foydali qazilmalarni yer osti usulida xavfsiz, samarali va ekologik talablar asosida qazib olish ishlarini bajarish, zamonaviy texnologiyalar, shuningdek uskunalardan foydalangan holda yer osti konlarida qazish va mustahkamlash ishlarini amalga oshirish orqali foydali qazilma zaxiralarini sifatli hamda tejamkor o'zlashtirishni ta'minlash.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	V seksiyasi: Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 05 Ko'mir va lignit qazib olish 05.1 Toshko'mir qazib olish 05.10 Toshko'mir qazib olish 05.10.0 Toshko'mir qazib olish 07 Metall rudalarini qazib olish 07.2 Rangli metall rudalarini qazib olish 07.29 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish 07.29.0 Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Kon lahimlarini burg'ilash va portlatishga tayyorlash. Kon lahimlarini o'tish. Kon lahimlarini mustahkamlagichlarni o'rnatish. Foydali qazilmalarni yer osti usulida qazib olish. Foydali qazilmalarni tashish. Xodimlarni, foydali qazilmalarni uskuna va jihozlarni shaxtaga tushirish va ko'tarish.	
5	Kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		93110016 Lampachi	2
		81111010 Shaxtaga mahkamlovchi (portlovchi) materiallarni yetkazuvchi	2
		81111005 Mustahkamlovchi	3
		81111008 O'tuvchi (proxodchik)	3
	81111011 Stvolchi (yerosti)	3	

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	93110016 - Lampachi	A1.2	Kon lampalarini zaryadlash, tarqatish va qabul qilish	A1.01.2	Turli xil turdagi shaxta lampalarini zaryadlash, lampalarni qabul qilish, tekshirish, ularni ishchilarga berish va hisobini yuritish ishlarni amalga oshirish
				A1.02.2	Shaxsiy himoya vositalarini qabul qilish, tekshirish, ularni ishchilarga berish va hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish
2	81111010 - Shaxtaga mahkamlovchi materiallarni yetkazuvchi	B1.2	Mahkamlovchi materiallarni qabul qilish, tayyorlash va ish joyiga yetkazish	B1.01.2	Mahkamlovchi materiallarni qabul qilish, tayyorlash hamda saqlanish holatini nazorat qilish
				B1.02.2	Qabul qilingan va tayyorlangan mahkamlovchi materiallarni ish joyiga yetkazish hamda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya etish
5	81111005 - Mustahkamlovchi	D1.3	Kon lahimlarini mustahkamlashda qo'shimcha va yordamchi ishlarni bajarish	D1.01.3	Materiallar va asboblarni tayyorlash va yetkazib berish
				D1.02.3	Qoliplarni o'rnatish, ta'mirlash va demontaj qilish
				D1.03.3	Kon lahimlarining alohida mustahkamlash ramalari va barcha turdagi mustahkamlagichlar elementlari holatini nazorat qilish
		D2.3	Gorizental va qiya kon lahimlari va kovjoylarni mustahkamlash	D2.01.3	Kon lahimlari yuzalarini tayyorlash
				D2.02.3	Mustahkamlagichlar va qoliplar elementlarini demontaj qilish va ta'mirlash
				D2.03.3	Uskunalarni ishchi holatida saqlash
				D2.04.3	Ishlab bo'lingan bo'shliqlarni to'ldirish
		D3.3	Shaxta stvollari, vertikal va tutash kon lahimlari va ruda maydonchalarini mustahkamlash	D3.01.3	Shaxta stvollarini mustahkamlash
				D3.02.3	Tonnellarni mustahkamlash
D3.03.3	Beqaror kon jinslari va murakkab kon-geologik sharoitlarida o'tilgan kon lahimlarini mustahkamlash				

4	81111008 - O'tuvchi (proxodchik)	E1.3	Gorizontal, qiya va vertikal kon lahimlarini o'tish ishlarini olib borish	E1.01.3	Gorizontal, qiya va vertikal kon lahimlarini o'tish uchun tayyorgarlik va yordamchi ishlarni bajarish
				E1.02.3	Kesim yuzasi 20m ² gacha bo'lgan gorizontal, qiya va vertikal kon lahimlarini o'tish va mustahkamlagichlarni o'rnatish
		E2.3	Maxsus kon lahimlarini o'tish, vertikal stvollarni o'tish, chuqurlashtirish, rekonstruksiya qilish va qayta jihozlash	E2.01.3	Kesim yuzasi 20m ² dan katta maxsus kon lahimlarini o'tish va mustahkamlagichlarni o'rnatish
				E2.02.3	Vertikal stvollarni o'tish, chuqurlashtirish, rekonstruksiya qilish va qayta jihozlash ishlari
3	81111011 - Stvolchi (yerosti)	F1.3	Stvol orqali odamlar, yuklar va foydali qazilmalarni tushirish va ko'tarishni tashkil etish	F1.01.3	Yordamchi stvollar orqali yuklar va foydali qazilmalarni tushirish va ko'tarishni tashkil etish
				F1.02.3	O'rtacha kattalidagi stvollar orqali odamlar, yuklar va foydali qazilmalarni tushirish va ko'tarishni tashkil etish
				F1.03.3	Katta stvollar orqali odamlar, yuklar va foydali qazilmalarni tushirish va ko'tarishni tashkil etish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Lampachi
Mashg'ulot nomining kodi:	93110
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan shaxslar;</p> <p>Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi;</p> <p>Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi;</p> <p>Lampalarni qabul qilish, tekshirish, zaryadlash, ta'mirlash va saqlash;</p> <p>Akkumulyatorlar, zaryadlash qurilmalari va elektr xavfsizligi qoidalaridan xabardor bo'lishi;</p> <p>Lampalarning sozligi va ishga yaroqliligini nazorat qila olishi;</p> <p>Hisobga olish, berish va qabul qilish bo'yicha hujjatlarni yurita olishi;</p> <p>Mehnat muhofazasi, elektr va sanoat xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishi;</p> <p>Rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish;</p> <p>O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;</p> <p>Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish;</p> <p>Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish;</p> <p>O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish;</p> <p>Jamoa bilan samarali va hamjihatlikda ishlash;</p> <p>O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish;</p> <p>Aniqlik va diqqat bilan ishlash;</p> <p>Mas'uliyat va ishonchlilik;</p> <p>Tartib va intizomga rioya qilish;</p> <p>Ishchilar bilan muloqot qilishda xushmuomalalik</p>
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim; tayanch o'rta ta'lim.
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-razryadli Lampachi

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Yer osti kon ishchisi
	2	Shaxtaga mahkamlovchi materiallarni yetkazuvchi
	3	Stvolchi (yerosti)
	3	O'tuvchi (proxodchik)
	3	Mustahkamlovchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifasi	
A1.2- Kon lampalarini zaryadlash, tarqatish va qabul qilish	A1.01.2 — Turli xil turdagi shaxta lampalarini zaryadlash, lampalarni qabul qilish, tekshirish, ularni ishchilarga berish va hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyini ko'zdan kechirish, ish joyida ish boshlashga xalaqit qiluvchi begona predmetlarni olib tashlash
		2. Kon energetigidan yo'l-yo'riq va naryad topshiriq olish
		3. Smena boshlanishidan oldin lampalar saqlanadigan xonani tekshirish va jurnallardagi barcha yozuvlar bilan tanishish. Smena topshiruvchidan zaryadlash stollarining holati, lampalar saqlanadigan xonadagi lampalar soni, barcha berilgan topshiriqlar haqida bilib olish va smenani qabul qilish jurnaliga tegishli yozuvlarni kiritish
		4. Shaxsiy himoya vositalari, lampaning va favqulodda ishlatiladigan asboblarning to'liqligini, yong'inga qarshi vositalarni tekshirish
		5. Kon energetigi va uchastka boshlig'iga ishda aniqlangan nosozliklar to'g'risida xabar berish
		6. Turli xil turdagi kon lampalarini to'ldirish va zaryadlash
		7. Qayta zaryadlanuvchi batareyalarni zaryadlash stollariga o'rnatish va ularni zaryadlash
		8. Kerakli zichlikdagi elektrolitni tayyorlash, uning batareyalardagi darajasini kuzatish va belgilangan darajada to'ldirish
		9. Zaryadlash moslamalariga texnik xizmat ko'rsatish, o'lchash vositalarining ko'rsatkichlarini kuzatish
		10. Qurilma ko'rsatkichlari bo'yicha zaryadlash jarayonini tartibga solish
		11. Batareyaning aloqa qismlarini zang, tuz va ishqordan tozalash
		12. Shaxta lampalarini tozalash, xizmatga yaroqliligini tekshirish va muhrlash
		13. Lampalarni tekshirish va ishchilarga berish
		14. Lampalarni berish, ishchilarning lampalar bilan konga tushishi va ko'tarilishini hisobga olish
15. Lampalarni hisobga olish		
16. Lampalar saqlanadigan xonalarni tozalash		

		Ko'nikmalar:
		Turli xil turdagi kon lampalarini zaryadlash bo'yicha ishlarni bajara olish
		Tozalash ishlari va zaryadlash stoli qurilmalariga texnik xizmat ko'rsata olish
		Zaryadlash jarayonida batareyalarning zaryad darajasini kuzatish va belgilangan darajaga qadar to'ldira olish
		Zaryadlash qurilmalarining ko'rsatkichlariga qarab jarayonni sozlay olish
		Ish yuritish va lampa to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish
		Konchining lampasini texnik holatini tekshira olish
		Ish joyida yong'in o'chirish uskunasidan foydalana olish
		Jabrlanganlarga ish joyida birinchi yordam ko'rsata olish
		Favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladigan vositalaridan foydalana olish
		Bilimlar:
		Zaryadlashda ishlatiladigan turli xil tizimlar, zaryadlovchi qurilmalar, nazorat-o'lchash asboblari shaxta lampasiga o'rnatish qoidalari
		Aloqa vositalari, ishlab chiqarish signalizatsiyasi, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalari, yong'inga qarshi vositalar va gazni himoya qilish uskunalarining vazifasi, foydalanish va ishlashini tekshirish qoidalari
		Turli xil turdagi kon lampalarini zaryadlash qoidalari
		Tozalash ishlari va zaryadlash stoliga texnik xizmat ko'rsatishda maxsus vositalar va qurilmalardan foydalanish qoidalari
		Kon lampalarini tarqatishda xavfsizlik talabi
		Shaxta lampalari va qayta zaryadlanuvchi batareyalarni zaryadlash qoidalari
		Batareyani zaryadlash tartibi
		Elektrolitni tayyorlash qoidalari
		Lampalarni qabul qilish, demontaj qilish, yig'ish va chiqarish tartibi va qoidalari
		Kislotalar, ishqorlar va boshqa materiallar, lampalar va batareyalarni saqlash qoidalari
		Elektrotexnika asoslari
		Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari
		Konchilik korxonasi avariylarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi
		Portlovchi materiallar bilan ishlashda va ishlarni bajarishda mehnatni muhofaza qilish, sanoat, ekologik va yong'in xavfsizligi talablari

	A1.02.2 - Shaxsiy himoya vositalarini qabul qilish, tekshirish, ularni ishchilarga berish va hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish	Mehnat harakatlari
		1. Shaxsiy himoya vositalarini tarqatish va yig'ish
		2. Shaxsiy himoya vositalarining muhri, ish muddati va yaroqliligini ko'zdan kechirish
		3. Shaxsiy himoya vositalarini hisobini yuritish
		4. Yaroqsiz vositalarni saralash va ta'mirga yoki utilizatsiyaga yuborish
		5. Shaxsiy himoya vositalarini ombordan qabul qilish va ishchilarga berish
		6. Qaytarilgan vositalarni tekshirib, hisobdan chiqarish yoki qayta tayyorlash
		7. Ish joyini toza va tartibli saqlash, uskunalarini sanitar talablarga muvofiq tozalash
		8. Gaz analizatorlarini qabul qilish, tekshirish va ishchilarga berish
		9. Respiratorlarni qabul qilish, yuvish, lampalarni berish, ishchilarning lampalar bilan kongra tushishi va ko'tarilishini hisobga olish
		Ko'nikmalar:
		Shaxsiy himoya vositalarini turlari va ularning qo'llanish sohasini aniqlash
		Shaxsiy himoya vositalarini tuzilishi, ishlash prinsipini aniqlay olish
		Elektr uskunalaridan to'g'ri ishlata olish
		Hisobot va inventarizatsiya bilan bog'liq ishlarni hisobga olish jurnali yoki kompyuter dasturida yurita olish
		Mehnat muhofazasi va sanitariya qoidalariga rioya qilish
		Ish joyida yong'in o'chirish uskunasiidan foydalana olish
		Jabrlanganlarga ish joyida birinchi yordam ko'rsata olish
		Favqulodda vaziyatlarda qo'llaniladigan vositalaridan foydalana olish
		Bilimlar:
		Shaxsiy himoya vositalari turlari va tuzilishi, qo'llash sohasi hamda ishlash prinsipi
		Shaxsiy himoya vositalariga xizmat ko'rsatish qoidalari
		Konda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishdagi asosiy xavfsizlik talablari
		Avariya yoki gaz chiqishi holatida shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi
		Yoritish vositalari bilan bog'liq avariylarni oldini olish yo'llari
		Shaxsiy himoya vositalarining yaroqliligini tekshirish usullari
		Yaroqsiz shaxsiy himoya vositalarini aniqlash va ularni almashtirish tartibi

		Shaxsiy himoya vositalarini berish, qabul qilish va hisobga olish tartibi ularning utilizatsiyasi
		Shaxsiy himoya vositalariga bo'yicha amal qiladigan me'yoriy hujjatlar va korxonada ichki qoidalari
		Shaxsiy himoya vositalariga bilan bog'liq jurnallarni yuritish qoidalari
		Favqulodda holatlarda harakat qilish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1.Rahbariyat tomonidan berilgan naryad-ijozat asosida ishlarni to'g'ri va xavfsiz tashkil etadi
		2.Xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda elektrolitlardan foydalanadi
		3.Shaxsiy himoya vositalarini, gaz analizatorlarini qabul qiladi, tekshiradi va ro'yxatga olgan holda ishchilarga tarqatadi
		4.Konga tushayotgan va kondan chiqayotgan xodimlar hisobini yuritadi
Texnik va/yoki texnologik talab	<p>Shaxta va sanoat yoritish lampalari, portativ chiroqlar hamda individual yoritish vositalarining tuzilishi va ishlash prinsipini bilishi zarur;</p> <p>Akkumulyatorlar, zaryadlash qurilmalari, elektr ta'minoti va himoya moslamalari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;</p> <p>Lampalarni tekshirish, sozlash, zaryadlash va mayda ta'mirlash ishlarini bajarishni bilishi lozim;</p> <p>Elektr o'lchov asboblari (kuchlanish, tok, qarshilik o'lchagichlar) bilan ishlay olishi kerak;</p> <p>Lampaxona jihozlari va saqlash uskunalarning texnik holatini nazorat qila olishi zarur;</p> <p>Texnik hujjatlar, yo'riqnomalar va xavfsizlik belgilarini o'qiy olishi shart;</p> <p>Lampalarni qabul qilish, berish, hisobga olish va qayta topshirish tartibini bilishi lozim;</p> <p>Lampalarni ekspluatatsiyaga tayyorlash va ishga yaroqliligini ta'minlashi kerak;</p> <p>Akkumulyatorlarni belgilangan rejimda zaryadlash va saqlash qoidalariga rioya qilishi zarur;</p> <p>Nosoz lampalarni o'z vaqtida aniqlash, ajratish va ta'mirlashga topshirish jarayonini amalga oshirishi shart;</p> <p>Mehnat muhofazasi, elektr, yong'in va sanoat xavfsizligi talablariga qat'iy amal qilishi lozim;</p> <p>Lampaxona ish faoliyati bo'yicha hisob va hisobotlarni yurita olishi kerak;</p> <p>Lampalarni saqlash uchun maxsus stellaj va shkaflar;</p> <p>Akkumulyator zaryadlovchi uskunalari;</p> <p>Elektr o'lchash asboblari (voltmetr, ampermetr).</p> <p>Lampalarni tozalash va ta'mirlash uchun mayda asboblari;</p>	

	Shaxsiy himoya vositalari uchun alohida saqlash joylari; Shaxsiy himoya vositalar; Dielektrik qo'lqoplar; Izolyatsiyalangan asboblari; Maxsus kiyim va poyabzal; Quloqchin va ko'zoynak.
--	---

Kasbning nomi:	Shaxtaga mahkamlovchi materiallarni yetkazuvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	81111	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	2	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	<p>Maxsus ruxsatlar: Kamida 18 yoshga to'lgan shaxslar. Mehnat muhofazasi, sanoat va texnika xavfsizligi, sanoat sanitariyasi me'yoriy talablari, favqulodda vaziyatlar, yong'in va elektr xavfsizligi talablari bo'yicha bilimlarni sinovdan o'tgan bo'lishi; Dastlabki va davriy tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Mahkamlovchi materiallarni yuklash, tashish, tushirish va belgilangan joyga yetkazish; Shaxta transport vositalari (vagonetkalar, konveyerlar, mexanizmlar) bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi; Yuklarni xavfsiz joylashtirish va mahkamlash; Shaxtada mehnat muhofazasi, sanoat va kon xavfsizligi talablariga rioya qilish; Texnologik ko'rsatmalar va yo'riqnomalar asosida ishlay olish; Mustaqil ishlash uchun ruxsatga ega bo'lishi; Rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish; Belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; O'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; Jamoalar bilan samarali va hamjihatlikda ishlash; O'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	umumiy o'rta ta'lim; tayanch o'rta ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	ish joyida qisqa muddatli o'qitish (instruktaj) yoki qisqa muddatli kurslar yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-razryadli Shaxtaga mahkamlovchi materiallarni yetkazuvchi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	2	Yer osti kon ishchisi
	3	Stvolchi (yerosti)

		3	O'tuvchi (proxodchik)
		3	Mustahkamlovchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifasi		
B1.2 - Mahkamlovchi materiallarni qabul qilish, tayyorlash va ish joyiga yetkazish	B1.01.2- Mahkamlovchi materiallarni qabul qilish, tayyorlash hamda saqlanish holatini nazorat qilish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Ish o'rnini, shaxsiy va jamoaviy himoya vositalarini ishga tayyorlash	
		2. Smenani qabul qilish va topshirishda smena ishlab chiqarish topshiriqlari to'g'risida ma'lumot olish (ma'lumot berish)	
		3. Buyurtma bo'yicha mustahkamlash, qurilish, moylash materiallari, ehtiyot qismlar, quvurlar, relslar va boshqa zarur uskuna, jihozlarni yetkazish uchun qabul qilish	
		4. Mahkamlovchi va boshqa materiallarni qabul qilishda hujjatlarni rasmiylashtirish	
		5. Yog'ochlarni rejalash va kesish	
		6. G'ovalarni arralab bruslar, plastinalar va doskalar olish	
		7. Yog'och materiallarning yaroqsizlarini ajratish	
		8. Ishlarni bajarish zarur bo'lgan darajada duradgorlik va chilangarlik ishlari	
		9. Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish	
		10. Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish	
		Ko'nikmalar:	
		Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi talablari asosida ish o'rnini tashkil eta olish	
		Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan to'g'ri va samarali foydalana olish	
		Buyurtmalar bo'yicha zarur materiallarni yetkazish uchun qabul qila olish	
		Yaroqsiz materiallarni aniqlash va ajrata olish	
		Yog'och materiallarni texnik talablarga muvofiq ravishda arralay olish	
		Yog'och materiallarning turlarini farqlash va ularni maqsadga muvofiq tanlay olish	
		Duradgorlik va chilangarlik ishlarini bajara olish	
		Favqulodda holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish	
		Bilimlar:	
		Ish o'rnini tashkil qilish qoidalari	
		Ish qurollari va jihozlarni ishga tayyorlash	
		Jihozlariga qo'yiladigan talablar	
		Qo'llaniladigan mustahkamlovchi va boshqa tegishli materiallar turlari va o'lchamlari	

		Qo'llaniladigan materiallarga qo'yiladigan talablar
		Yog'och materiallari turlari, navlari va o'lchamlari
		Yog'ochlarni arralash qoidalari
		Duradgorlik ishlarini bajarish usullari
		Xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoidalari
		Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari
B1.02.2 - Qabul qilingan va tayyorlangan mahkamlovchi materiallarni ish joyiga yetkazish hamda mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya etish		Mehnat harakatlari:
		1. Mustahkamlovchi, qurilish, moylash materiallari, ehtiyot qismlar, quvurlar, relslar, turli jihozlar, boshqa tegishli materiallarni vagonlar, vagonetkalariga va boshqa transport vositalarga yuklash
		2. Materiallar, ehtiyot qismlar va boshqa tegishli materiallarni shaxtaga, shtolnyalarga yoki boshqa shaxta qismlariga yetkazish
		3. Materiallarni bloklar, chig'irlar, domkratlar, turli takelaj mexanizmlari va boshqa moslamalar yordamida kletga, badyalarga, skiplarga yuklash va materiallarni shaxtaga tushirish
		4. Zarur hollarda yukni tushirish joyiga kuzatib borish
		5. Materiallar, jihozlarni belgilangan joylarga tushirish va ularni taxlash
		6. Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish
		7. Jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish
		Ko'nikmalar:
		Harakatlanuvchi yuklar bilan ishlaganda yoki boshqa holatlarda signallar bera olish
		Materiallar, ehtiyot qismlar va boshqa tegishli materiallarni transport vositalariga belgilangan qoidalarga ko'ra yuklay olish
		Chig'irlar, domkratlar, turli takelaj mexanizmlari va boshqa moslamalardan foydalana olish
		Yuk ko'tarish mexanizmlari va moslamalaridan to'g'ri foydalana olish
		Materiallarni shaxtaga tushirish jarayonida xavfsizlik talablariga rioya qilish
		Favqulodda holatda birinchi tibbiy yordam ko'rsata olish
		Bilimlar:
		Ish qurollari va ish jihozlariga qo'yiladigan talablar
		Ish jarayonida qo'llaniladigan takelaj moslamalari, ko'tarma-transport qurilmalarining tuzilishi, qo'llanilishi hamda ularni o'rnatish va foydalanish tartibi
		Asbob-uskunalar va boshqa yuklarni transport vositalariga ortish va mahkamlash usullari
		Yuklash moslamalari mustahkamligini tekshirish usullari

		Ko'tarma-transport qurilmalari va moslamalarining maksimal yuk ko'tarish chegaralari
		Mustahkamlovchi va boshqa materiallar yuklash, tashish va tushirish qoidalari
		Mustahkamlovchi va boshqa materiallarni shaxtaga tushirish qoidalari
		Transport vositalari va kletlarning gabarit o'lchamlari
		Yog'ochlarni tushirish moslamalarining tuzilishi
		Xavfsizlik qoidalari, ishlab chiqarish sanitariyasi va yong'in xavfsizligi qoidalari
		Birlamchi elektrotexnika asoslari
		Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Xavfsizlik talablariga amal qilgan holda ishlarni tashkil etadi
		2. Yong'in haqida xabar beradi va yong'inni oldini oladi
3. Smena boshlig'i tomonidan berilgan naryad-ruxsatnomasi asosida topshiriqlarni xavfsiz va samarali bajarilishini ta'minlaydi		
4. Buyurtma asosida mustahkamlaydi, boshqa materiallarni qabul qiladi va yetkazadi		
5. Mustahkamlash materiallarni tayyorlaydi		
Texnik va/yoki texnologik talab	<p>Shaxtada qo'llaniladigan mahkamlovchi materiallarning turlari va xususiyatlarini bilishi zarur;</p> <p>Mahkamlovchi materiallarni tashish uchun mo'ljallangan shaxta transport vositalarining tuzilishi va ishlash prinsipini bilishi shart;</p> <p>Yuklash va tushirishda qo'llaniladigan mexanizmlar hamda moslamalar bilan ishlash lozim;</p> <p>Yuklarni mahkamlash va joylashtirish uchun foydalaniladigan yordamchi asbob-uskunalarini bilishi kerak;</p> <p>Texnik yo'riqnomalar va xavfsizlik belgilarini o'qiy olishi zarur;</p> <p>Mahkamlovchi materiallarni belgilangan texnologik ketma-ketlik va marshrutlar bo'yicha yetkazib berishi shart;</p> <p>Yuklarni tashish jarayonida ularning butligini va xavfsizligini ta'minlashi lozim;</p> <p>Shaxta ish rejimi va ishlab chiqarish jadvaliga muvofiq materiallarni o'z vaqtida yetkazishi kerak;</p> <p>Shaxtada mehnat muhofazasi, kon va yong'in xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilishi zarur;</p> <p>Texnologik ko'rsatmalar va rahbar topshiriqlari asosida ishlashi shart;</p> <p>Materiallarni qabul qilish va topshirish bo'yicha hisob va qaydlarni yurita olishi lozim;</p> <p>Asbob-uskunalar va transport;</p>	

